

GEOGRAFIYA FANI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Axunova Shoxida Ibragimovna

Muhammad Yusuf ijod maktabi

Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada geografiya fanida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar, innovatsion metodlar, ularni yoshlarda qo'llash bo'yicha so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion o'qitish, simulyatsiya usuli, zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, muammolarni o'rganish.*

Ilm–fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda jamiyat ravnaqi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan qay darajada foydalana olishiga ham bog liq. 'rta ta'lim maktabi Bu, o'z navbatida maktab o'qituvchilarining ham zimmasiga darslarning samaradorligiga erishish, ularning sifati va mazmundorligini ta'minlash, maktabdagi o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yuqori darajada egallashlariga ko'maklashish kabi yuksak mas'uliyatni yuklaydi. Hozirgi kun ta'limi ham o'qituvchilardan darslarni o'qitishda zamonaviy yondashuvni talab qilmoqda. Bugun o'quvchini an'anaviy, bir xil qolipdagi darslar bilan sinfda "mixlab" o'tirishning iloji yo'q, ularni darslarga qiziqtirish ancha qiyinlashgan. Chunki atrof-muhitda o'quvchini chalg'itadigan axborotlar ko'p, ular o'qituvchidan ko'ra axborot-kommunikatsiya texnikalaridan ko'proq foydalanish imkoniyatiga ega, dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalardan tezroq xabardor bo'ladilar. Darslarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan birga, internet saytlaridan samarali foydalanish, darslikdan tashqari yangi ma'lumotlarni tezkor yetkazish ham o'qituvchi mahoratini belgilashda asosiy omil bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, darslarni tashkil etishda ilmiylikka, o'quvchilarni mulohaza, munozaraga chorlaydigan jarayonni tashkil etish o'qituvchidan katta bilim, tajriba, mahorat hamda izlanuvchanlikni talab etadi.

Geografiya - bu Yerning inson sayyorasi sifatida yaxlit ko'rinishini ta'minlaydigan yagona o'quv fani deb hisoblash mumkin. U shuningdek umumiy madaniyatni, shu jumladan ekologik madaniyatni shakllantiradi; barcha darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy majmuadir. Fanning yana bir muhim jihati bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni qanday qilib birlashtirishga, ma'lum bir xalqaro aloqa tili - geografik xaritadan foydalanishga o'rgatadi. Geografik ta'lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o'z mamlakati va sayyoramizni o'rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta'lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlarini o'rab turgan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo'lishining ma'nosini to'g'ri

tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to'plashi zarur. O'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishda maktab o'quvchilari uchun zamonaviy o'quv qo'llanmalariga katta ahamiyat beriladi. Sir emaski, o'qitishning asosiy vositasi hanuzgacha atlas bilan jihozlangan darslikdir. Shu bilan birga, samarali o'qitish o'quv-uslubiy majmuasi deb ataladigan boshqa bir qator o'quv qo'llanmalaridan (dasturlar, ko'rsatmalar, o'quv daftarlari) foydalanishni o'z ichiga oladi. Ammo o'quv materiallaridan tashqari, boshqa o'quv qo'llanmalari ham qo'llaniladi: audiovizual va ekran-tovush, shuningdek turli xil interaktiv o'quv vositalari (multimedia ensiklopediyalari va qo'llanmalari, moslashtirilgan dasturiy va uslubiy majmualar va shunga o'xshash elektron darsliklar, test dasturlari).

Ma lumki, dunyoviy bilimlarni egallashda barcha fanlar qatorida geografiyani o'rganish ham zarurat hisoblanadi. 2020-2021-o'quv yilidan boshlab oliy ta'limda geografiya fanidan kirish imtihonlarining topshirilishi ham mazkur fanning zamonaviy ilm-fandagi o'рни beqiyosligini, respublikamiz iqtisodiy hayotida zaruriy yo'nalishlaridan biri ekanini isbotladi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida bu fanga nisbat qiziqish ortganiga hamda fanning obro'yi bir pog'ona ko'tarilganiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi davrda geografiyani o'rganishga kirishgan o'quvchilar faqat darslik bilan chegaralanib qolmaydilar. Ular yer yuzining tuzilishi, geografik qobiqda yuz berayotgan jarayonlar, okeanlarning paydo bo'lishi, orollarning materiklardan ajralib chiqishi, ob-havoning o'zgaruvchanligi, iqlim hosil qiluvchi omillar kabi ma'lumotlarni bilishda axborot texnologiyalaridan, ayniqsa, internet saytlaridan unumli foydalanishadi. Buni hozirgi murakkab davrda ham yaqqol kuzatish mumkin. Har bir fan uchun Telegram messenjerida alohida guruhlar ochib, onlayn darslar olib borilayotgan bir vaqtda o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni ta'lim saytlaridan izlanib javob topishlari va qaysi manbalardan foydalanayotganlarini ko'rsatishlari ham quvonarli holat. Geografiya fanining o'qitilishida darslar hayotga bog'lab qiziqarli va ijodiy tashkil etilsa, maqsadga erishish oson bo'ladi. Geografiya darslarida dars samaradorligini oshirishda ko'proq ko'rgazmali qurollardan, suhbat, bahs-munozara uslublaridan, kinofilmlardan, turli boshqotirmalardan, testlardan, amaliy mashg'ulotlardan foydalanish mumkin. 4-sinfda "Tabiatshunoslik" fanini o'zlashtirib, 5-sinfga qadam qo'ygan o'quvchi uchun "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi" qiziqarli bo'lish bilan birga biroz murakkablik qiladi. Beshinchi sinfda haftasiga atigi bir soat geografiya darsining o'tilishi esa mavzularni o'zlashtirishni yanada qiyinlashtiradi. Shuning uchun mavzularni tushuntirish uchun metod va usullarni qo'llashda bolaning yosh o'rta ta'lim maktabi xususiyatlarini ham hisobga olish shart.

Hozirda mamlakatimizning barcha maktablarida o'z ish faoliyatini olib borayotgan ustoz va murabbiylar zamonaviy o'qitish usullarini bosqichma-bosqich yaratib bormoqdalar, shuningdek, geografiya fanida ham hozirda darslarni tashkil etishda turli xil metodlar yaratilmoqda, lekin shu ham ta'kidlash joizki, geografiya fanini boshqa fanlar bilan taqqoslaganda juda ham ortda ekanligi sezilib turibdi, bunga birgina bizning fanimizga kirib kelayotgan yangi inovatsion metodlar boshqa yetakchi fanlarda ancha oldin ildamlab ketgani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Geografiya o`qituvchisi 45 daqiqalik dars jarayonida ana`naviy dars metodlaridan foydalanib, shu bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, turli xil pedagogik o`yinlarni, ya`ni ana`naviy dars metodlari bilan birga yangi dars o`tish usullarini uyg`unlikda dars jarayoniga moslashtira olishi zarur.

Tovush chiqarmasdan topish o`yini. O`yinni boshlashdan avval o`quvchilarga o`yin qoidalari tushuntiriladi. O`yinga faol qatnashgan va shartlarni oldin bajargan o`quvchiga baho qo`yiladi. O`yin mazmuni O`qituvchi geologik biron obyekt nomini aytadi. O`quv vositasi o`quvchilar shu obyektни geografik karta va atlasdan qidiradi, o`yining borishi: Obyektни topgach o`quvchi o`ng qo`lini ko`taradi, o`qituvchiga o`zi topgan obyektни ko`rsatadi, o`quvchi qo`li bilan obyektни ushlab turmasligi kerak. Chunki yonidagi bola undan ko`rib olishi va foydalanishi mumkin. Shuning uchun obyektни topgan o`quvchi joyning nomini yodda saqlashi zarur. O`qituvchi oldin topgan va qo`lini ko`targan o`quvchining oldiga borishi va tekshirib ko`rishi kerak. "Men topdim", "men topdim" deb tovush chiqargan o`quvchilarning topgani hisobga olinmadi, bu haqda bolalar ogohlantirib qo`yiladi. O`yinda obyektни birinchi bo`lib topgan o`quvchi uni geografik karta yoki atlasdan ko`rsatishi kerak Boshqa o`quvchilar qanchalik bilib olganliklarini sinash uchun ulardan ham obyekt so`raladi. Obyektни topgan o`quvchi o`tirgandan so`ng, o`qituvchi yangi obyekt nomini aytadi. Kartadan topish o`yini. Har bir sinfda olib boorish mumkin. Darsning mazmuniga qarab o`yin geografik atlasning turli sahifalaridagi obyektlarda bo`ladi. O`quvchilarga bu o`yinni bir necha bor o`ynaganlaridanso`ng tez topadigan nomning geografik koordinatlarini aniqlash topshiriladi. Buning uchun shahar va qo`rixonalarни tanlagan ma`qul o`quvchilar topilgan joylarning koordinatalarini daftarga yozib oladilar.

FOYDALANILGAN.ADABIYOTLAR:

1. Yuldashev.J.G.,Usmonov S.Zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish-T"Fan va texnologiya"2008.
2. Qodir To`rayev, Sattor Burxonov, Muhayyo Zokirova"Qiziqarli bilimlar olamida" Toshkent-2014y.
3. Geografiya fanini o`qitishda yangi innovatsiyalarni joriy qilish. Usmonov.2016
4. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg ulotlar. T: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2015
5. Rakhmatov, Dilmurod. "Mobile technologies in the higher education system." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 2021.02 (2021): 182-196.
6. Rakhmatov, Dilmurod, and Abduganiyev Akhror. "Digital technologies in higher education: innovative solutions in targeted learning." Development issues of innovative economy in the agricultural sector (2021): 83-86.
11. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. Finland

International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 975-980.

12. Adhamjonov, M. (2022). IMPLEMENTATION OF EFFECTIVE ORAL CORRECTIVE FEEDBACK IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 30-33.

13. Адхамжонов, М. (2022). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. PEDAGOG, 1(2), 402-406.

14. Muhammadali, A. (2023). HISTORY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND ITS METHODOLOGY. Journal of new century innovations, 29(1), 127-131.

15. Muhammadali, A. (2023). НЕМИС ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 417-422.

16. Muhammadali, A. (2023). USE OF INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Journal of new century innovations, 27(5), 71-74.

17. Adhamjonov, M., & Nurillaev, E. (2020). MODERN REQUIREMENTS FOR COMMUNICATIVE COMPETENCE OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 155-161.